

Madaniyat

Date : 2 Sentabr, 2013

Sirdaryo viloyatida Madaniyat va sport ishlari boshqarmasining sport tadbirlari uchun 2013 yilda 9 oy davomida mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan 93552 (to'qson uch million besh yuz ellik ikk) so'm miqdorida moliyalashtirildi va maqsadli sarf qilindi. Homiylik hisobidan sportchilarning o'quv mashg'ulot yig'inlarida, Respublika, Halqaro musobaqalarida ishtirok etishlari va boshqa sport tadbirlari uchun 34776 (o'ttiz to'rt million yetti yuz yetmish olti ming) so'm harajat qilindi.

2013 yil 9 oy davomida 11 nafar 3-daraja, 13 nafar 2-daraja, 92 nafar 1-darajali, 51 nafar sport ustaligiga nomzod va 2 ta Halqaro toifadagi sport ustalari tayyorlandi. Shuningdek, 29 nafar murabbiyga birinchi toifali, 11 nafar murabbiyga ikkinchi toifalar berildi hamda 12 nafar murabbiy va sportchilarning sport darajalari qayta yangilandi.

Ichki ishlar boshqarmasi bilan birgalikda ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish bo'yicha qo'shimcha tadbirlar ishlab chiqarildi.

Viloyat madaniyat va sport ishlari boshqarmasi Sog'liqni saqlash boshqarmasi bilan hakorlikda sportchilarni muntazam tibbiy ko'rikdan o'tkazib turish, viloyat terma jamoalarini har bir musabaqaga jo'natish oldidan tibbiy ko'rikdan o'tkazish va musobaqalardan so'ng tiklanish tavsiyanomalarini berish bo'yicha zaruriy ishlar olib borilmoqda.